
SO'XLIK MIRJAHON "NEFTCHI" YOSHLAR TERMA JAMOASI A'ZOLIGIGA QABUL QILINDI



So'xlik Mirjahon "NEFTChI" yoshlar terma jamoasi a'zoliciga qabul qilindi

O'sib kelayotgan yosh avlod O'zbekiston, yangi O'zbekistonning kelajagidir. Quvonarlisi, So'x tumanida ham mana shunday yoshlar ko'pgina topiladi.

Sport, aniqrog'i futbol sohasida o'zining mahorati bilan barchani lol qoldirayotgan Mirjahon Tuychiboyev Sharqobod mahallasida tug'ilgan. Xabarinigiz bor, o'tgan yili Mirjahon Toshkent shahrida 2009 yilda tug'ilgan futbol akademiyalari tarbiyalanuvchilari o'rtasida Professional futbol maktablari ligasi "O'zbekiston kubogi" musobaqalarida qatnashib, musobaqalar davomida raqiblar darvozasini 10 marta nishonga olib mazkur turnirning eng yaxshi to'purari nominatsiyasi g'olibligini qo'lga kiritgan edi.

Hozirgina bizga yangi xushxabar yetib keldi. Xabarda keltirishicha, So'x tumani Sharqobod mahalla fuqarolar yyig'inida yashovchi 24.04.2009 yilda tug'ilgan Tuychiboyev Mirjahon Alisherovich respublikamizning nufuzli sport musobaqalarida munosib qatnashib, "NEFTChI" yoshlar terma jamoasiga qabul qilindi. Barcha So'x tumani aholisi va sport muxlislari nomidan Mirjahonni tabriklaymiz va unga ulkan zafarlar tilaymiz.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati



[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-01-21 11:43:54